e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/fd3rzf94

INSON – MILLATNI SHAKLLANTIRUVCHI OMIL

Otamuratov Sadulla

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, professor.
e-mail: s.atamuratov1944@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0000-0002-3346-2290

Annotatsiya.

Sivilizatsiya, inson va millat kabi omillarning o‘zaro munosabatlari murakkab ijtimoiy-falsafiy masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, bugungi dunyoda beqarorlik kuchayib borayotgan sharoitda inson hayoti qanday kechishi, u o‘zida qanday qadriyatlarni saqlab qolishi mumkinligi yoki globallashuv jarayonlari uning milliy va ma’naviy qadriyatlardan mahrum bo‘lishiga olib kelishi mumkinligi haqidagi savollarga javob izlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, milliy va ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylashda insonning mas’uliyatini oshirish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, insonning millat vakili sifatidagi maqomi va uning istiqboldagi o‘zgarishlari haqida falsafiy mulohaza yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada inson millatni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: inson, millat, globallashuv, Yevropa, ma’naviyat, ma’naviy qashshoqlik.

ЧЕЛОВЕК КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИИ

Отамуратов Садулла

Ташкентский химико-технологический институт, профессор.

Аннотация.

Взаимосвязь таких факторов, как цивилизация, человек и нация, представляет собой одну из сложных социально-философских проблем. В частности, в условиях усиливающейся нестабильности современного мира особую актуальность приобретает поиск ответов на вопросы о том, как складывается жизнь человека, какие ценности он способен сохранить и может ли глобализация привести к утрате национальных и духовных ценностей. Особенно возрастает необходимость повышения ответственности человека за сохранение национальных и духовных ценностей. Вместе с тем важное значение приобретает философское осмысление статуса человека как представителя определённой нации и возможных перспектив его изменения. В статье человек рассматривается и анализируется с социально-философской точки зрения как один из основных факторов формирования нации.

Ключевые слова: человек, нация, глобализация, Европа, духовность, духовное обнищание.

THE HUMAN BEING AS A FACTOR IN NATION FORMATION

Otamuratov Sadulla

Tashkent Institute of Chemical Technology, Professor.

Abstract.

The interrelationship between civilization, the human being, and the nation represents a complex socio-philosophical issue. In particular, amid increasing instability in the contemporary world, it is becoming increasingly important to explore how human life develops under such conditions, which values individuals can preserve, and whether globalization may lead to the loss of national and spiritual values. The need to strengthen individual responsibility for preserving national and spiritual values is becoming particularly significant. At the same time, philosophical reflection on the status of individuals as members of a nation and the possible future transformation of this status is gaining importance. This article provides a socio-philosophical analysis of the human being as one of the key factors in nation formation.

Keywords: human being, nation, globalization, Europe, spirituality, spiritual impoverishment.

Kirish. Sivilizatsiya, inson va millat kabi omillarning o‘zaro munosabatlari murakkab ijtimoiy-falsafiy masalalardan hisoblanadi. Xususan, insonning hayoti bugungi dunyoning omonatlashayotgan sharoitida qanday kechadi, o‘zida qanday qadriyatlarni saqlab qolishi mumkin yoki globallashuv ummoni uning qadriyatlardan mahrum bo‘lishiga olib keladimi, degan savollarga javob izlash bugungi kundagi muhim masalalardan birini tashkil qiladi. Ayniqsa, qadriyatlarni asrashda uning mas’uliyatini oshirish zarurati bugungi kunda nihoyatda kuchayib bormoqda. Xususan, uning millat vakili sifatidagi maqomining istiqboli qanday kechishi mumkinligi haqida mulohaza va fikrlar yuritish

ISSN 3060-5059 (Online)

zarurati ortib bormoqda. Chunki bizning konseptual g‘oyalarimizdan biri ham millat inson, insonsiz millat bo‘lmaydi, ulardan birining bu yorug‘ olamda yo‘q bo‘lib ketishi butun sivilizatsiyaning barbod bo‘lishi bilan yakunlanadi, degan fikrdir.

Shuning uchun ham insonning ongli faoliyati boshlanibdiki, uni chinakam “inson” darajasiga yetkazish falsafaning asosiy muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda. Ammo bu oxiri ko‘rinmaydigan muammoligicha qolib kelmoqda. Bu tabiiy holat. Chunki inson tirik mavjudot bo‘lib, uning o‘zini o‘zi anglashi ham murakkab kechmoqda. Uning ongli faoliyati boshlanibdiki, mavjud ne’matlarni asrab, keyingi avlodlarga yetkazishga qaraganda, bugun o‘z nafsini to‘yg‘azishga bo‘lgan ruhiyati oshib bormoqda, chinakam “komillik”dan ko‘ra ma’naviy zaifligi oshib bormoqda, buning natijasida uning o‘z-o‘zidan, millatidan, jamiyatidan begonalashuvi ham oshib bormoqda. Xullas, ana shu salbiy jarayonlarning oshib borayotganligi “inson” muammosini o‘rganishning oxirgi nuqtasi yo‘qligini ko‘rsatmoqda. Uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortgan sari bu muammo yanada chuqurlashib borishda davom etmoqda. Shu ma’noda ham buyuk faylasuf miletlik Fales “Eng qiyin narsa nima?” degan savolga “O‘zini anglash” [1; 10], deb javob bergan. O‘zini anglashning poyoni yo‘qligi bois ham insonning ma’no-mazmuni va ijtimoiy mohiyatiga nisbatan turli qarashlar antik davr falsafasidan boshlab to hozirgi zamon falsafasigacha davom etib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugun “millat” omiliga qarashlar turli-tuman bo‘lib, ularda hatto bir-biriga qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Jumladan, ulardan ayrimlari millatning mavjudligini inkor qilsalar, ikkinchi birlari uni hatto ilmiy tildan olib tashlash zarur, deb hisoblaydilar. Masalan, rus olimlaridan biri P.A. Sorokin “Millat ijtimoiy borliq sifatida mavjud emas” [2; 248], degan bo‘lsa, ikkinchi biri V.A. Tishkov esa “Millat – bu siyosiy shior va safarbar qiluvchi vosita, ammo u ilmiy tushuncha emas... uning yashashga huquqi yo‘q va u ilmiy tildan olib tashlanishi kerak” [3; 52], deb yozadi.

Ba’zi bir yevropalik olimlarning fikricha, “G‘arbda va boshqa mamlakatlarda millat masalasi so‘nib bormoqda” [4; 123]. Kembrij universitetining professori Ernest Gellnerning fikricha esa, “Amalda millat bor-yo‘g‘i davlat kabi tasodif, ular umumiy zaruriyat emas” [5; 124], emish. U rus tiliga tarjima qilingan “Нации и национализм” asarida millat belgilarini bir guruh odamlarning huquq va burchlarini o‘zaro e’tirof etishlari sifatida talqin etadi [5; 35]. Uning fikridan ko‘rinib turibdiki, millat uchun keng ma’nodagi ma’naviy omillar yoki inson uchun xos bo‘lgan milliy qadriyatlarning o‘rni hamda ahamiyati “yo‘q”. Karen Momdjyan ham V.A. Tishkovning fikriga qo‘shiladi va kelajakda millatni esdan chiqarishga to‘g‘ri kelsa kerak, deb hisoblaydi. Ular haqida oldingi faslda batafsil to‘xtalgan edik. Bu yerda ularni takroran bo‘lsa ham keltirishimizdan sabab, ana shunday holatda millat insoniyatning buyuk qadriyatlaridan biri ekanligi haqidagi g‘oyalarni butun insoniyat ongiga singdirish nechog‘lik samara berishi mumkinligini ko‘rsatishdir.

Yana bir misol, bugun Yevropa mamlakatlarining aksariyat ko‘pchiligida elektron pasport tizimi tashkil etilganligi munosabati bilan ana shu mintaqadagi 17 davlatda fuqarolik pasportlaridagi “millat” grafasi olib tashlangan. Ularda fuqarolik insonning asosiy belgisi sifatida amal qilmoqda. Bunday tartibni qo‘shnimiz Qozog‘iston davlati ham joriy qilish niyatida ekanligini e’lon qildi. Ammo bu fikrni qo‘llab-quvvatlamaydiganlar ham ko‘pchilikni tashkil qilganligi sababli hozircha amalga oshganicha yo‘q. Shu sababli ham bu tartibning e’lon qilinishiga turli salbiy munosabatlar yuzaga kelmoqda.

MUHOKAMA

Falsafada inson muammosini o‘rganishda ko‘zlangan maqsad uning o‘zligini anglashiga, o‘z “men”ligiga erishishiga “yordamlashish”, yanada aniqrog‘i, uning shaxs darajasiga ko‘tarilishi bilan bog‘liq imkoniyatlarni izlab topish va ulardan insonning shaxs darajasiga yetishishida samarali foydalanishdir. Chunki inson dunyoga kelib, ulg‘ayish jarayonida turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, unda ehtiyoj va manfaatlari ham shakllanadi. O‘z navbatida, ijtimoiy munosabatlar manfaatlar turli-tumanligini yuzaga keltiradi. Ular muvozanatga keltirilmas ekan, bu ziddiyatlar shakllanishiga olib keladi. Bu o‘z-o‘zidan amalga oshavermaydi. Buning ustiga, har doim o‘sib boradigan ehtiyojlarning barchasini qondirishning esa imkoniyati yo‘q. Buning asosiy sababi ularning cheksizligi va bepoyon ekanligi bilan bog‘liqdir. Buning uchun keng qamrovli tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish zarur bo‘ladi. Ammo olib boriladigan tarbiya ishlarining hammasi ham kutilgan natija beravermaydi. Bunda yuzaga keladigan yoki mavjud bo‘lgan obyektiv va subyektiv omillarni hisobga olish va ularning ijobiy imkoniyatlaridan foydalana bilish hamda salbiylarini bartaraf eta bilishdek juda murakkab muammoni hal qilish talab etiladi.

Insonning “chinakam inson” bo‘lib yetishish darajasi diniy va dunyoviy ilmda “komillik”, “komil inson”, “barkamol inson”, “ma’naviy barkamol inson”, “yetuk inson”, “har tomonlama shakllangan inson” va boshqa nomlar bilan ko‘rsatib kelingan. U qanday nom bilan atalmasin, uning zaminida insonning o‘zini o‘zi anglashi mezoni turadi. Barkamollikning boshlanishi ham ana shu bilan bog‘liq bo‘ladi.

Barkamollikning muhim mezonlaridan biri har bir inson yoxud millatning ma’naviyati nechog‘lik yuksakligi bilan bog‘liq. Insonning komilligi bilan ma’naviyat o‘rtasida dialektik bog‘liqlik amal qiladi. Ma’naviy yuksaklikka erishish yo‘li bilan inson, millat komillikka erishishi mumkin. Ularning har ikkalasini yuksak darajaga ko‘tarish ham katta muammo sifatida davom etaveradi. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Xalq, millat o‘z milliy ma’naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Chunki ma’naviyat qotib qolgan aqidalar yig‘indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo‘lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma’naviy hayot oldiga qo‘yiladigan talablar ham muttasil paydo bo‘laveradi” [6; 171].

Shu ma’noda ham ma’naviyat kabi barkamol insonni shakllantirish vazifasi zamon va makon xususiyati hamda talabiga muvofiq o‘zgarib, takomillashib boraveradi. Barkamol insonning mezonlari keng bo‘lib, ular yuqorida ko‘rsatilganidek, o‘zini o‘zi real subyekt sifatida anglashdan boshlanib, ota-ona, oila, qarindoshlik, millat, jamiyat, insonlararo munosabatlar, jahon hayoti, tabiat va boshqa hodisa hamda jarayonlarga munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Bu munosabatlarni har bir davrning ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda shakllantirish juda murakkab

ISSN 3060-5059 (Online)

hisoblanadi. Chunki bu, bir tomondan, ehtiyojlar va manfaatlarning cheksizligi bilan, ikkinchi tomondan, davrning o‘zi ham doimiy rivojlanishi va o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liqdir. Shuni hisobga oladigan bo‘lsak, ehtiyoj va manfaatlarni muvozanatga keltirish va insonning o‘zini o‘zi anglashiga “yordamlashish”ni unda barcha munosabatlarning “insoniylik” darajasi namoyon bo‘lishining asosi sifatida qarash mumkin bo‘ladi.

Shunday qilib, aytish mumkinki, barkamol insonning oliy ko‘rinishi o‘z “men”iga erisha olgan shaxsdir. Lekin uning ana shu maqomga yetishining oxirgi nuqtasi bormi o‘zi? Agar insonning ana shu “men”likka intilish jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, uning ma’naviy qashshoqlashuvi avj olayotganligining guvohi bo‘lamiz. Bu masalaning qaltisligi shundaki, insoniyatning o‘z taraqqiyoti davomida intellektual jihatdan yuksalib borishi uning ma’nan barkamollikka erishishiga olib kelmadi. Aksincha, u tobora qashshoqlashib bormoqda. Shu ma’noda insonning o‘z istak, xohish, manfaat va ehtiyojlarini millatni asrash yo‘lida jilovlaydigan chinakam inson darajasiga ko‘tarilishi abadiy muammoligicha qolmoqda. Bu jarayonni bugun yuksak iqtisodiy taraqqiyotga erishgan, o‘z ma’naviyatini ko‘z-ko‘z qilayotgan, uni ommalashtirishga mablag‘ini ayamayotgan mamlakatlarda insonlarning o‘zaro begonalashuvida, ota-ona, oila, farzand, millat qadriyatlarining so‘nib borayotganligida, bir jinsli nikohning qonunlashtirilayotganida, jinsni o‘zgartirish kabi o‘ta noinsoniy munosabatlarda – bir so‘z bilan aytganda, insoniyat o‘z aql-idrokining ma’naviy qurboniga aylanayotganida ko‘rish mumkin. Uni bu fojiadan “himoya” qilishning imkoniyatlarini izlab topish va uni amaliyotga tatbiq eta bilish bugun insoniyat erishgan sivilizatsiyaning ertangi taqdirini belgilab beradi. Agar yuqorida keltirilgan barcha salbiy ko‘rsatkichlardan kelib chiqiladigan bo‘lsa, yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlar timsolida insoniyatning ma’naviy inqirozi, u erishgan ma’naviy tamaddunning barbod bo‘lishi uchun kerak bo‘lgan darajaning eng “pik” (kulminatsion) va “so‘nggi” nuqtasiga yetib kelmoqda, deyish mumkin. Endi unga o‘z ma’naviy “men”ligini anglatishni boshidan boshlash ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Bugun demokratik qadriyatlar bayrog‘i ostida umuminsoniy qadriyatlardan yiroq bo‘lgan ma’naviyat “erkinligi” ruhiyatini shakllantirish jarayonlari avj olmoqda.

NATIJALAR

Yuqorida zikr etilgan barcha salbiy holatlarning amal qilayotganligi insonning “men”ligi “demokratik qadriyat”larning qurboniga aylanmasligi uchun mexanizmlarni topish muhlati yetib kelganligini ko‘rsatmoqda. Chunki insoniyatning ma’naviy qashshoqlashuv jarayonida ma’naviyatni yemirishga xizmat qiladigan “demokratik qadriyat”larni rivojlantirishga intilgan sari insonning ma’naviy “men”ligi barbod bo‘lmoqda. Agar bu jarayonga bugun e’tiborsizlik bilan qaralsa, ertaga inson o‘z “men”ligiga erishishni yana boshidan boshlashiga to‘g‘ri keladi. Ammo bunda uning ma’naviy va intellektual salohiyatining yetishi dargumonlashib bormoqda.

Savol tug‘iladi. Nega insoniyat bugun bu darajada ma’naviy qashshoqlashuv tomon ketmoqda? Bu uning tabiatiga xosmi yoki uning ruhiyati va ongida sodir bo‘layotgan o‘zligidan begonalashish jarayoni bilan bog‘liqmi yoxud uning yuksak intellektual salohiyatga erishgan sharoitda ma’naviyat rivojlanishining “pik” darajaga ko‘tarilishidan keyingi orqaga qaytishining belgisimi? Yuksaklikning mezoni nimada? Uni o‘lchaydigan tarozi bormi? Axir hayot doimo harakatda ekan, yuksaklikni ham o‘ziga mos ravishda ko‘tarish kerak-ku. Uni yuzaga keladigan muammolarning yechimini topa bilishdagi salohiyati bilan belgilash kerak emasmi? Albatta, bu savollarga javob topish ancha murakkab masala. Buning uchun amaliyotdagi mavjud fanlarning umumiy hamkorligi zarur bo‘ladi. Xullas, bugun jahon miqyosida umumma’naviy yemirilish jarayonlari kuchaygandan kuchayib ketmoqda. Bu, o‘z navbatida, bugun insoniyat erishgan tamaddunga tahdid solmoqda, uni insoniyat o‘zi yaratib, o‘zi barbod etish xavfi kuchaymoqda.

Nazarimizda, bu masalani hal qilishda ishni insonning “o‘zaro begonalashuv” jarayonining oldini olishdan boshlash to‘g‘ri bo‘ladi. Agar u o‘z “men”ini ota-ona, qarindosh-urug‘, oila, millat, jamiyat va butun insoniyat kabi qadriyatlari orqali anglasagina, uning ma’naviy qashshoqlashuvining oldi olinishi mumkin bo‘ladi. Bugun bu yo‘nalishda bir qator nazariyalar mavjud. Jumladan, birovlar jahon miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlash yo‘li bilan umuminsoniy qadriyatlarni qayta tiklash mumkinligini ilgari sursa, ikkinchi birlari jahon miqyosida ketayotgan globallashuv jarayonlarini “cheklash”, yana birlari esa jahon mamlakatlarining o‘zaro integratsiyalashuvi orqali ma’naviy yemirilishning oldini olish, uchinchi birlari texnika va texnologiya taraqqiyotini bir qadar cheklash haqidagi fikrlarni ham ilgari surmoqdalar.

Agar keltirilayotgan fikrlarga chuqurroq yondashadigan bo‘lsak, ularning ayrimlari ozmi-ko‘pmi amalga oshmoqda. Lekin ularni absolut (to‘la) amalga oshirishning imkoniyati yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas. Ikkinchi tomondan, doimo o‘sib boradigan moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni ta’minlash mumkin bo‘lmay qoladi. Ya’ni bir muammoni hal etish yana boshqalarining yuzaga kelishiga sabab bo‘laveradi. Shu bilan birga, agar texnika va texnologiya taraqqiyoti cheklanadigan bo‘lsa, ikkita yangi muammo yuzaga keladi. Birinchidan, insoniyat intellektual jihatdan taraqqiyotdan orqada qolib ketadi. Boz ustiga, har bir mamlakat va unda yashayotgan xalqning o‘ziga xos mentaliteti, manfaat va ehtiyojlari bilan bog‘liq. Ularni hech qachon bir “qolip”ga solib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ana shu o‘ziga xoslik, manfaat va ehtiyojlar turli-tumanligini hisobga olgan holda umumma’naviy yemirilishning oldini olishga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi omillarni izlab topish va ulardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim bo‘ladi. Ana shundaylardan biri yana “inson” – ha, inson omilidir. Uning sivilizatsiyalarni barbod qilishdagi emas, balki bunyodkorlikka qaratiladigan imkoniyatlariga jo‘shqinlik bag‘ishlash zarurdir. Buning uchun esa, eng avvalo, uning o‘z “men”ligiga erishishiga “yordamlashish”, uning harakatiga ma’naviy qudrat bag‘ishlash o‘zining samarasini berishi mumkin.

Ammo bu oson ish emas, uni ma’ruza o‘qish yoki quruq maslahat berish, tegishli me’yoriy hujjatlar qabul qilish yoxud kuch ishlatish yo‘li bilan amalga oshirib bo‘lmaydi. Buning uchun uning azaldan ruhiyati va ma’naviyatida mavjud bo‘ladigan, uni “uyg‘otadigan”, harakatga keltiradigan zanjirdagi asosiy “halqa”ni topish zarur bo‘ladi va undan samarali foydalangan holda insonning o‘z-o‘zidan begonalashuvi va ana shu yo‘nalishda sodir bo‘layotgan salbiy jarayonlarning oldini olish mumkin. Ana shu “halqa” iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy omillar bo‘lishi mumkinmi? Albatta, ularning birontasini inkor qilib bo‘lmaydi. Ularsiz umuman hayotning o‘zi ham bo‘lmaydi. Lekin o‘rni kelganda

ISSN 3060-5059 (Online)

ularga ham o‘zining ta’sirini o‘tkaza oladigan “halqa”ni topish kerak bo‘ladi. Bu “halqa” o‘zining ta’sirchanligi bilan iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotda o‘zini namoyon etsin.

Fikrimizcha, insoniyat taraqqiyotining umumiy zanjiridagi ana shu asosiy halqa – bu “millat” omilidir. Xo‘sh, nega millat omili asosiy “halqa” bo‘la oladi? Buning quyidagi asoslari mavjud: birinchidan, “millat” mavhum tushuncha, u faqat insonlar orqali moddiy reallik sifatida namoyon bo‘ladi. Real insonlarsiz millatni tasavvur etib ham bo‘lmaydi. Insonga xos bo‘lgan or-nomus, hayo, mehr-muhabbat, g‘urur, iftixor, yaratuvchanlik, mas’ullik, vatanparvarlik, urf-odat, an’ana, qadriyat kabi o‘ziga xosliklar real insonlar uyushmasi vositasida millatda o‘z ifodasini topadi; ikkinchidan, odam dunyoga inson bo‘lib keladi. U o‘zining millat vakili sifatidagi “maqomini” ongi shakllana boshlaganidan keyingina anglay boshlaydi. U buni dastlab ota-ona, oila, jamiyat va boshqa ijtimoiy institutlar ta’sirida o‘zlashtira boshlaydi. Ayni paytda, insonning millatga mansublik ruhiyatini ong bilan “cheklash”ni oxirgi nuqta deb bo‘lmaydi. Aks holda, bunday qarash falsafaning voqea, hodisa va jarayonlarga har doim “shubha” bilan qarash, ularning birontasiga oxirgi haqiqat deb qaramaslik va nuqta qo‘ymaslik haqidagi oltin qoidasiga zid bo‘lgan bo‘lur edi. Zero, ilmiy va falsafiy tafakkur taraqqiyoti natijasida insoniyat bugungi yuksak darajadagi tamaddunga erisha oldi. Demak, aytish mumkinki, insonning millat vakili sifatida shakllanishiga “shubha” bilan qarash va oxirgi “nuqta”ni qo‘ymaslikka asos bor. Uchinchidan, millat insonning “mahsuli”, inson uni o‘zi dunyoga keltirgan, unga bu “maqom”ni uning o‘zi bergan, boshqa turli institutlar tomonidan berilgan “maqom” esa ana shu reallikning aks ettirilishidir.

Demak, millatni inson dunyoga keltirar ekan, unga xos bo‘lgan barcha ijobiy va salbiy ko‘rsatkichlar millat “uyushmasida” ham o‘z ifodasini topadi. Jumladan, yuqorida keltirilgan or-nomus, hayo, mehr-muhabbat, g‘urur, iftixor, yaratuvchanlik, vatanparvarlik, do‘stlik, mas’ullik, urf-odat, an’ana, qadriyat yoki bu ijobiy ko‘rsatkichlarga zid bo‘lgan salbiy ko‘rsatkichlar millat ijodkori bo‘lgan insondan millatga “ko‘chib” o‘tadi. Insonga xos bo‘lgan barcha ijobiy ko‘rsatkichlar uning uchun har qanday moddiy boyliklardan ustun turadi, bu uning inson bo‘lib yashashi, “men”ligini ifoda ettirib turuvchi “muqaddas” ma’naviy-ruhiy salohiyati, “tiriklik”ning ijobati hisoblanadi. Ana shu ko‘rsatkichlarning amal qilishi natijasida inson moddiy farovonlikka va siyosiy barkamollikka erishadi. Ammo insonlarning hammasida yuqoridagi fazilatlar bo‘lavermaydi. Ularning bir qismida o‘z nomiga dog‘ tushiradigan pastkashlik, yovuzlik, zo‘ravonlik, ochko‘zlik, muttahamlik, beboshlik, o‘z manfaati yo‘lida hatto o‘z yaqinlaridan ham voz kechish kabi eng jirkanchlikka boradigan maxluq sifatida hayot kechiradiganlar ham mavjud bo‘ladi. Ular ota-ona, Vatan, millat, ezgulik kabi ulug‘ tuyg‘ulardan mahrum bo‘lganlardir. Ular agar mingtadan bitta bo‘lsa ham, millatni asrashda to‘siq bo‘ladigan eng xatarli kuch hisoblanadi. Chunki uning zaminida nafaqat ma’naviy qashshoqlik, shu bilan birga, o‘z millatiga xiyonat qiluvchilarni o‘z atrofiga to‘plash ishtiyoqi ham mavjud bo‘ladi.

XULOSA

Keltirilganlardan chiqadigan xulosa shuki, insoniyat ma’naviy yemirilishining oldini olish, insonning inson bo‘lib yashashiga ijobiy ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan omillardan biri uning millat vakili ekanligi hissiyotini uyg‘otish, uni o‘z g‘ururi, iftixori, or-nomusining mezoni sifatida qarash darajasiga ko‘tarish hisoblanadi. Xuddi ana shu tuyg‘u uning ma’naviyati qay darajada rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf: taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar / to‘plovchi va tarjimon S. Jo‘rayeva. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – B. 10. – URL: https://library.samdpi.uz/ebooks/view?id=4916. library.samdpi.uz
2. Сорокин П. А. Человек. Цивилизация. Общество / общ. ред., сост. и предисл. А. Ю. Согомонова. – Москва: Политиздат, 1992. – С. 248. – URL: https://nlrs.ru/to-readers/segments/school/open/540. nlrs.ru
3. Тишков В. А. Постсоветское пространство. Экономические проблемы (круглый стол) // Социологические исследования. – 1992. – № 1. – С. 52.
4. Социологические исследования. – 1992. – № 12. – С. 123. –https://www.socis.isras.ru/archive.html. socis.isras.ru
5. Геллнер Э. Нации и национализм // Вопросы философии. – 1989. – № 7. – С. 124. – URL (jurnal soni): https://djvu.online/file/MfgmcDzjI3Xh2. djvu.online
6. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 171. – URL: https://akbt.urspi.uz/uz/books/1015. akbt.urspi.uz